
Arxeologik tadqiqotlarni rivojlantirish yo’lida

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar institutuning ilmiy xodimlari M.Saidov, Sh.Pardayevlar Mark Plank Instituti Jamiyat tarixi fanlari Arxeologiya departamenti tomonidan tashkil etilgan “INTERNATIONAL APPLICATION OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE” mavzusidagi xalqaro o‘quv-amaliy kursida ishtirok etmoqdalar. Maks Plank Institutining Arxeologiya departamentida arxeologiyada yangi fanlararo uslublarni ishlab chiqish va qo‘llash ustuvor vazifa hisoblanib, an’anaviy dala tadqiqotlari zamonaviy ilg‘or usullar bilan uyg‘unlashtirib kelinmoqda.





Kurs davomida O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Shri Lanka, Keniya, Zambiya, Vetnam kabi davlatlardan tashrif buyurgan mutaxassislarni arxeologik tadqiqotlarda arxeobotanika, arxeozoologiya, geoarxeologiya, statistik tahlil, izotoplar tahlili, osteologiya, geografik informatsion tizim (GIS) kabilarni qo‘llash, bu boradagi uslub va usul haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari nazarda tutilgan.